

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**  
**IJTIMOIIY - IQTISODIIY FAKULTETI**  
**IJTIMOIIY-MADANIY FAOLIIYAT YO‘NALISHI**  
**206-GURUH TALABASI**

**ISAYEV DIYORBEKNING**  
**JAHON VA O‘ZBEK ADABIYOTI**

fanidan tayyorlagan

# **REFERATI**

**Mavzu: Bolalar qo‘shiqlari**

Topshirdi:

B.Isayev

Qabul qildi:

D.Ashurov

Namangan 2014

## **Bolalar qo‘shiqlari**

### **Reja:**

1. Bolalar mehnat qo‘shiqlari
2. Bolalarni fasl va marosim qo‘shiqlari
3. Bola termalari
4. Xulosa

Kishilar o'z mehnatlarini, turmushdagi barcha voqyealarni qo'shiq bilan bezaganlar. Bu haqda Pol Lafarg "To'y qo'shiqlari va urf-odatlar" risolasida shunday degan edi: "qattiq mashaqqatlar ichida yashagan qadimgi odamlarning turmushida bo'laturg'on barcha ishlarda she'riyat bor, ijod (improvizatsiya) bor. Janazada bo'lsin, to'yda bo'lsin, qishloqlarda bo'ladigan diniy bayramlar, kasaba to'ylari, qishning uzoq kechalari, xullas, bir necha xalq to'plangan har bir joyda zamonaning voqyealarini qo'shiqqa oluvchi shoirlar bo'ladilar"<sup>1</sup>. Bunday qo'shiqlarning, xalq og'zaki ijodi namunalarining tub mohiyatini ochib: "qadimgilardagi xayolotning har bir parvozida uning qo'zg'atuvchisini topish qiyin emas, bu qo'zg'atuvchi kishilarning o'z mehnatlarini osonlashtirishga intilishidir. Aniq va ravshanki, bu intilishlarni hayotga jismoniy mehnat kishilari kirgizgan edilar", degan edi A.M.Gorkiy.

Bolaning hayotga kirib kelishida ana shu mehnat kishilarining o'rni katta. Ular o'zlari bajarib turgan ishga bolani jalb etadilar, mehnat jarayonida bevosita qatnashtiradilar. "Bolalar qishloqda dehqonchilik, chorvachilik, shaharda kosiblik, kulollik, novvoylik, duradgorlik, temirchilik, qisqasi, turmushdagi xilma-xil hunarlarning guvohi, hunarmandlarning dastyori va hamrohi bo'ladilar. Ular otalari mehnat jarayonida yaratgan mehnat poeziyasining ilk tinglovchilaridir"<sup>2</sup>.

### **Bolalar mehnat qo'shiqlari**

Tabiiyki, bolalar yurish-turishi, kiyinishi, ovqatlanishi, mehnat qilishida kattalarga taqlid qiladilar. Mehnat jarayonida kattalar tomonidan aytilgan qo'shiqlar ham bolalar tomonidan o'zlashtirilgan, qayta ishlangan va hatto o'xshatma tarzida yangilari to'qib chiqarilgan. qishloq bolalarining chorva boqish jarayonida aytib yuradigan qo'shiqlaridan bir misol:

Oq qo'y, qora qo'y,  
Barra o'tdan yeb to'y.  
Tez-tez yesang to'lasan,  
Peshingacha to'lasan.

Qo'shiqdagi keyingi ikki satrga e'tiborni qarataylik. Birinchi misra «Tez-tez yesang to'lasan» darak gap, ya'ni tez-tez, ko'p-ko'p o't-o'lanlarni yesa to'yishi haqida xabar

---

<sup>1</sup> O'zbek folklori. II kitob, Toshkent, 1941.-B.8.

<sup>2</sup> Jahongirov G'. Bolalar ertaklari. -T.: Cholpon, 1972.-B. 120.

beradi. Ikkinchi misrada esa ovoz toni bir oz ko'tarilib, gap buyruq shaklida aytilyapti. Ya'ni «Men tush paytida qishloqqa qaytaman, o'sha vaqtgacha to'yib ol!» mazmunida.

Mehnat jarayonida aytiladigan qo'shiqlarni boshqa bir turini bahor paytida, chakka o'tib, bolalar tom tepayotganida hamda bolalar qozonda patirlab qovurilayotgan bodroqni kuzatayotganda ham eshitamiz:

Bodroq, bodroq, g'ar-g'ar, tezroq patirla!

Yoki boshqa bir variantida «bodroq» so'zi o'rnida «oq telpak», ba'zi joylarda «qo'g'irmoch» so'zi ishlatiladi:

Oq telpak, g'ar-g'ar,

Oq telpak, g'ar-g'ar!

Bodroq qovurish jarayonida yuqoridagi jumlar takrorlab turilsa, makkajo'xori doni kuyib ketmay, yaxshi qovurilar emish.

### **Bolalarni fasl va marosim qo'shiqlari**

Bolalar qo'shiqlari orasida bolalarning fasl va marosimlarga moslab to'qib chiqargan va aytib yuradigan mavsumiy qo'shiqlari ham bir talay. Bolalar qo'shiqlaridagi tabiat hodisalariga atalgan so'zlar negizida quyosh, oy, bulut, yomg'ir, qor va boshqa tabiat hodisalarining mohiyati yotadi.

Xalq orasida suv haqida behisob afsonalar, qo'shiqlar, ertaklar, hikoyalar yaratilgan. O'zbek xalqining eng yaxshi orzulari suv bilan bog'langan. Ajdodlarimizning muqaddas kitobi hisoblanmish «Avesto»da ham suv to'rt muqaddas unsurlardan biri hisoblanadi. Bu umumxalq ruhidan bolalar ham chetda qolmaydilar. Ularning o'yinlari va ashulalarida ham suv, tabiat hodisalari mavzui bor. Bulardan biri yomg'ir haqidadir. Yomg'ir yog'a boshlaganda o'g'il yoki qiz bola bosh yalang yomg'irda chopqillab yuradi, quvlashib sakraydi. Yomg'ir suvi ularning «sochlarini o'stirar emish», suv «yorug'lik» emish.

Mana juda mashhur bir to'rtlik:

Yomg'ir yog'aloq

Echki tug'aloq.

Boyning o'g'lining

Qorni yumaloq.

Qo'shiqning variantlari ko'p. Bu qo'shiq nafaqat Namangan bolalar folklorida, balki respublikamizning deyarli barcha viloyatlari bolalarining repertuarida uchraydi.

Birida «boyning o'g'li» o'rnida «qizining» deyiladi, boshqasida «qorni» o'rnida «og'zi yumaloq» deyiladi. Ba'zi viloyatlarda «Echki tug'aloq» jumlasida «Echki sog'aloq» tarzida aytiladi.

Keyingi davrlarga kelib, bolalar eski motiv asosidagi qo'shiqning yangi mazmun bilan boyitilgan variantini aytmoqdalar:

Yomg'ir yog'aloq,

Yam-yashil o'tloq.

Endi ekinlar,

Chiqarar quloq.

Bu albatta, bolalar shoirlarining zehnidagi qayta ishlanib, radio-televideniya bolalar xori tomonidan ijro etilib, keyin bolalar og'zida ommalashib ketganligidir.

«Yomg'ir yoqqanda Farg'onada yosh qizlar «Yomg'ir yog'! Sochim o's!» deb qichqiradilar»<sup>3</sup>. Namanganda esa sal boshqacha. Yomg'ir yog'ib turgan paytda birdaniga quyosh chiqib ketsa, osmonda turli xil rangda jilolanib kamalak paydo bo'ladi. Shu payt namanganlik qizaloqlar sochlarini uchini ostonaga qo'yib, bolta bilan kesadilar va «Sochim o's! Sochim o's!» deb qichqiradilar. Ularning fikricha, kamalak chiqqanda soch kesilsa, tez o'sar emish. Yana xuddi shu paytda, ya'ni yomg'ir yog'ib turib quyosh chiqib ketsa, bolalar «Bo'ri tug'di» deb ta'bir beradilar va qo'shiq aytadilar:

Bo'ri bola tug'di,

Ovchi uni quvdi.

Ushlolmay yugurdi,

Yomg'ir uni yuvdi.

Bahor quyoshi dastlab bolalarni quvontiradi. yerdan bug' ko'tarilib, devor chetlari, ko'chalar, sayhonliklar ochilib, maysa-giyoh ko'rinishi bilanoq bolalar o'yinlarini boshlab yuboradilar. Osmonga varraklar uchiriladi. qizlar sochlariga tol bargak taqadilar. Bolalar tol chiviqlarini qo'l bilan uqalab, asta po'stini shilib o'zlariga «toychoq» yasab minib yuradilar. Bahorning ilk darakchisi boychechak birinchi bahor qo'shig'iga sazovor bo'ladi. Ular bu qo'shiqni baland ovoz bilan, bab-baravar aytadilar. Bahor guli ochiq havoda bolalar xorini o'z-o'zidan tashkil qilib yuborgandek tuyuladi.

«Boychechak» qo'shig'i turli viloyat va tumanlarda turli xil variantda kuylanadi. Namangan bolalari tomonidan aytiladigan «Boychechak» qo'shig'i o'ziga xos bo'lib,

---

<sup>3</sup> Jahongirov G'. Bolalar ertaklari. -T.: Cholpon, 1972.-B. 68.

mazkur qo‘shiqning boshqa variantlaridan tamoman farq qiladi. Mana «Boychechak»ning Namangan variantlaridan biri:

Boka-bokaboy, boytilla,  
Eshigingizga toshtilla.  
Xudoyim o‘g‘il bersun,  
Uni oti Ramatillo.  
Ramatilloni bolasi,  
qulog‘idagi donasi.  
Yugurib chiqing, yugurib chiqing,  
qozon-tovoq to‘ldirib chiqing!

Boshqa bir variantda oxirgi ikki qator quyidagicha aytiladi:

O‘choqda kul, karmonda pul,  
Chiqara qoling yuz so‘m pul.

Yuqorida keltirilgan qo‘shiqda boychechak va u bilan bog‘liq fikrlar uchramasa-da, Namangan bolalari qo‘llarida boychechakni tutgan holda, dasturxon yoki belbog‘ning to‘rt uchidan ushlab, shu qo‘shiqni eshikma-eshik kuylab yuradilar. Xonadon sohiblari boychechakni ko‘zlariga surtib «yorug‘-ochiq» kunlarga yetkazgani uchun yaratganga shukr qilib, bolalarga qand-qurs ulashadilar.

Namangan bolalarining mavsumiy qo‘shiqlaridan yana biri «Ramazon» qo‘shig‘i bo‘lib, mazmun jihatdan aynan «Boychechak» ka o‘xshab ketadi. Farqli tomoni «Ramazon»da naqarot tarzida takror aytiladigan «Yo-ramazon, yo-ramazon» jumlasining mavjudligidir.

Ramazon aytib keldik eshigingizga,  
Xudoyim o‘g‘il bersin beshigingizga.  
Yo-ramazon, yo-ramazon!  
Tomingizni ketida oy ko‘rdik,  
Hammadan sizni boy ko‘rdik.  
Yo-ramazon, yo-ramazon!

Gullar va o‘simliklar bilan bog‘liq mavsumiy qo‘shiqlar ichida Namangan bolalari tomonidan kuylanadigan quyidagi qo‘shiq ham o‘zining ko‘p kuylanishi bilan xarakterlidir:

Bodring, diring-diring,

Oshqovoqqa yo‘l bering.

Katta xolam tug‘dila,

Otini Lola qo‘ydila.

Lola, Lola, angishvona,

Do‘ppi tikodi mahmadona.

-Do‘ppisi qani?

-Sotvordim.

-Puli qani?

-Aroq oldim.

-Aroq qani?

-Ichvordim.

-Shishasi qani?

-Sindirvordim.

-Sinig‘i qani?

-Yutvordim.

-Yutmay o‘l, gumdon bo‘l!

Qo‘shiq syujeti bir qarashda bir-biriga mantiqan to‘g‘ri kelmaydigan satrlar yig‘masidan tuzilganga o‘xshaydi. Lekin qo‘shiqning umumiy mazmuni birovning hisobiga kun ko‘rishning yaxshi odat emasligi, haloldan topilgan mablag‘ni «harom»ga sarflash yomon ekanligi haqida. Bu esa bolalarning ijtimoiy hayot mohiyatini anglay boshlaganliklari va o‘z munosabatlarini bildirib boshlaganliklaridan dalolat beradi.

Hayvonlar, gullar bilan bog‘langan qo‘shiqlar orasida qushlarga, qanotli jondorlarga atalganlari ham bor. Xususan, qaldirg‘och bilan laylak haqidagi qo‘shiqlar alohida ajralib turadi. Shuni aytish kerakki, bolalar qo‘shig‘ini o‘yinlaridan, harakatlaridan, o‘yinlarini esa qo‘shiqlaridan, biror shoirona iboralardan ajratgan holda qarash mumkin emas. Ammo hamma qo‘shiqlarni ham birday o‘yin bilan ijro etiladi, deb bo‘lmaydi. Masalan, qaldirg‘ochga atalgan qo‘shiqni bolalar ermak uchun aytadilar. Negaki, qaldirg‘ochlarning havoda sho‘xligini zavq bilan tomosha qiladilar, uyning toqiga qurgan «guvala» uylarini uzoq vaqt kuzatadilar, shu kichik «qo‘rg‘on»ning sirli devorlaridan bosh tiqib narigi tomonini ko‘rishni istaydilar, afsuski, iloji yo‘q. Nihoyat, qushning o‘ziga murojaat qiladilar:

Qaldirg‘och, g‘och-g‘och,

Eshigingni och, och.  
Eshigingni ochmasang,  
Derazangdan tushaman.  
Qatig'ingni ichaman,  
Iningni ham buzaman.

qo'shiqning oxirgi satri boshqa viloyatlarda turlicha: «qochamanda ketaman», «qaymog'ingni ichaman, iningni buzib qochaman», «Ipagingni eshaman, kal boshingni teshaman» va hokazo.

Bolalar chumchuq bilan juda yoshlikdan tanish. Uning bolalarini olib o'ynashadi, ekinlarni, uzum, olcha, giloslarini undan qo'riqlashadi - shunday munosabatlar ularni do'stlashtirgan. Shu sababdan ham chumchuq haqida aytiladigan qo'shiqlar har xil - birida chumchuq yomonlansa, ikkinchisida maqtaladi:

Chumchuq, chumchuq. chumchuq deng,  
Labingda uchuq, uchuq deng.  
Chirillab uchsa tomlardan,  
Burning puchuq, puchuq deng.

Yoki:  
Bir, ikki, olma dikki,  
Safar oyi, sariq chumchuq.  
Bog'da turmay tezroq uchib

chiq, chiq.

«Laylak keldi yoz bo'ldi» qo'shig'i ham mavsum qo'shiqlaridandir. Bu qo'shiq kunlarning isishidan, ekinlarning unishidan, qushlarning kelishidan, ariqlarda suvlarning to'lib oqishidan xabar berib, bola ko'nglida quvonch uyg'otadi.

Bolalar ota-onalaridan laylak haqida ko'p ertaklar, afsonalar eshitganlar, ashula-qo'shiqlarni maroq bilan tinglaganlar. Bolalar laylakni ko'pincha yoz elchisi sifatida tasavvur etishadi. Laylak ketgandan qaytib kelgunga qadar «tishlari bir tushib, chiqqani», ya'ni bir yoshga ulg'ayganliklarini his etadilar:

Laylak keldi yoz bo'ldi,  
qanoti qog'oz bo'ldi.  
Bir, ikki, o'n olti,  
O'n olti deb kim aytdi?

Tishim bir tushib chiqdi,

Yoshim sakkizga yetdi.

Uy parrandasi tovuq tuxum qo'ygandan so'ng bor ovozi bilan qog'-qog'laydi.  
Bolalar buni ham o'zlaricha «tarjima» qiladilar:

qog', qog', qog'

Bola tug'dim boshi yo'q,

Oyoq, ko'zu qoshi yo'q!

qog', qog', qog'

Xo'rozga berilgan nisbat ham uning ovoziga taqlid qilishga asoslanadi:

qu-qara, qu, qu,

Tomog'im teshu.

Bir parcha nonga,

Aytaman qo'shu(q).

Erta tongda bolaning uyqusini buzgan xo'roz-jarchi, turgan gap, unga salbiy ko'rinadi. Shu sabab xo'roz tama'gir qilib ko'rsatiladi.

Turli hasharotlar ham bolalar nazaridan chetda qolmagan. Masalan, kichkinagina go'zal qo'ng'izchani ko'rib qolishsa, bolalar uni darrov qo'llariga olib:

-Yog' opke, go'sht opke! Yog' opke, go'sht opke! –deb uni uchishga undaydilar va uchib ketsa, shodlanib qiyqiriq soladilar. Yoki bo'lmasa, qo'ng'izchani qo'llariga olib, yonidagi o'rtog'ini ismini aytb (Dildora bo'lishi mumkin):

-Dildora qaerga tegadi, Dildora qaerga tegadi? - deya takrorlab turadilar. qo'ng'izcha barmoqlari uchiga qadar yurib borib, qaysi tomonga qarab uchsa, bolalar shunga qarab Dildoraning qaysi tomonga turmushga chiqishi haqida hukm chiqaradilar. Bunday ijod namunalari bolalar folklorida **hukmlagich** deb nomlanadi. Bu janr bolalarning mifologik tasavvuri asosida paydo bo'lgan.

Namangan bolalari tomonidan aytiladigan hukmlagichlardan yana biri beshiktebratar haqida. Beshiktebratarni ko'rib qolgan bolalar:

Beshiktervat, beshiging tervat,

bolang yig'lutti.

Beshiktervat, beshiging tervat,

bolang yig'lutti.

Beshiktebratar ham xuddi bolalarning qo‘shiqlarini tushunganday, bir maromda beshik kabi tebrana boshlaydi. Bolalarning esa quvonchlari ichlariga sig‘may shodlanishadi. Yana zax joylarda ko‘p uchraydigan oyoqlari uzun-uzun hasharotning oyog‘ini uzib, yerga qo‘yib:

-Ketmon chop, ketmon chop! - deb buyruq beradilar. Uzib tashlangan oyoqchalar to joni chiqib ulgurguncha, xuddi chopayotgan ketmon kabi qimirlab turadi. Bu esa bolalar uchun g‘ayritabiiy tuyuladi.

«Chittigul»ni - gulni, bahorni eslatgani uchun mavsum qo‘shiqlari qatoriga kiritish odat bo‘lib qolgan, lekin folklorshunos olim G‘.Jahongirov «Aslida bu qo‘shiq bahordan qishgacha bolalar, xususan qizlar o‘ynab turib aytadigan sevimli qo‘shig‘idir»<sup>4</sup>, - deb yozadi.

Qo‘shiq ijrosini ko‘z oldimizga keltirib ko‘raylik: qizlar juft-juft bo‘lishib, kaftlarini bir vaqtda bir-biriga urib, aylanishib, qo‘llarini yana urishtirib qo‘shiq aytadilar. «Chittigul-o, chittigul», deyilganda qizlar yuzma-yuz turadilar. qo‘llari ma'lum tartib bilan bir-birlariga qarsillab tegib, chiroyli ohang kasb etadi. «Hay-yu chittigul, hay-yu chittigul» deyilganda qizlar bir xil maqom bilan turgan joylarida gir aylanadilar.

Qo‘shiq matnining naqarot qismi bilan voqyeaband bo‘lib bog‘lanib kelishi har doim shart emas. O‘yin so‘zlaridagi to‘rtliklar istalgan joyida uzilishi, o‘yinining to‘xtashiga moslashgan bo‘lishi mumkin. Birinchi ikki yo‘li o‘yinining yengil boshlanishiga sabab bo‘ladi. Keyingi yo‘llar juft-jufti bilan matn va naqarotdan iborat bo‘lib, o‘yinining sur‘atini oshirib beradi. Matnning voqyeaband qismi ikki, to‘rt va hatto olti yo‘ldan ham iborat bo‘lishi bolani zeriktirib qo‘ymaydi. Ohangning o‘zgarishi ijrochini yangi-yangi harakatlar qilishga undaydi va yaxlit o‘yin hosil bo‘ladi.

«Chittigul» ning Namangan variantlaridan biri:

Chittigul-chittigul,

Hay-yu chittigul.

Etagingga gul bosay,

Hay-yu chittigul.

qo‘ling qo‘lqopda bo‘lsin,

Hay-yu chittigul.

Beling belvog‘da bo‘lsin,

---

<sup>4</sup>Jahongirov G‘. Bolalar ertaklari. -T.: Cholpon, 1972.-B. 20.

Hay-yu chittigul.  
Dukur-dukur ot keldi  
Hay-yu chittigul.  
Chiqib qarang kim keldi,  
Hay-yu chittigul.  
Aravada un keldi,  
Hay-yu chittigul.  
Childirmada gul keldi,  
Hay-yu chittigul.  
Gul yaxshi-yu, gul yaxshi  
Hay-yu chittigul.  
Gulning qizili yaxshi,  
Hay-yu chittigul.  
O‘rtaga tushgan qizning,  
Hay-yu chittigul.  
Haydar kokili yaxshi  
Hay-yu chittigul.

«Chittigul» - mukammal ishlangan, go‘zal qo‘shiq. qo‘shiqning shakli ham, so‘zlari ham yengil. Shu sabab bo‘lsa kerak mazkur qo‘shiq respublikamizning deyarli barcha viloyatlarida uchraydi. «Chittigul» ga taqlidan aytilgan qo‘shiqlar ham bor. «Bangi-bangi», «Layzangul» va boshqalar<sup>5</sup>. Aksincha, oti o‘xshagani bilan ichki tuzilishi o‘xshamagan qo‘shiqlar ham bor.

### **Bola termalari**

Bola hayotida qo‘shiq, o‘yin, mashg‘ulotlardan tanaffus bo‘lmaydi. Yuqorida tilga olingan mavsum-marosim qo‘shiqlari bolalar ijodi daryosining bir sharsharali irmog‘i xolos. Undan ham mukammalroq, to‘laroq, voqyealari murakkabroq qo‘shiqlar bor. G‘.Jahongirov bunday qo‘shiqlar haqida: «Biz ularning xususiyatlaridan kelib chiqib, afsonaviy qo‘shiqlar, voqyeaband bola termalari deb atasak ham bo‘ladi. Negaki,

---

<sup>5</sup> Jahongirov G‘. O‘zbek bolalar folklori. -T.: Cholpon,1975.-B.88.

bolalarning jo'shqinligi va harakatchanligi to'lib-toshgan bunday qo'shiqlar ularning sermahsul fantaziyasi bilan ham yo'g'rilgan»<sup>6</sup>, - deb yozadi.

G'. Jahongirov bola termalari deb nomlagan va ta'rif bergan bunday qo'shiqlar Namangan bolalar folklori namunalari orasida ham ancha.

Tiniq, jarangdor so'zlardan tuzilgan, siqiq jummalari bir-biriga zanjir bo'lib eshilib ketgan mana bu qo'shiqqa e'tiborni qarating:

Kichkina qaychi qo'limni kesdi,

Bobochalar yo'limni to'sdi.

-qaqa borasan?

-Toqqa boraman.

-Tog'da nima bor?

-Tog'da pista bor.

-Nima qilasan?

-Pista chaqaman.

Pistani mag'zi,

Shahantti qanti.

Boshqa viloyat bolalari tilida xuddi shu qo'shiqning quyidagi kabi varianti bor:

qaychi-qaychi, - qaqa borasan?

Po'lat qaychi. -Toqqa boraman.

Po'lat qaychi -Tog'da maqasan?

qo'limni kesdi. -Pista chaqaman.

Mullavachchalar -Pistani mag'zi

Yo'limni to'sdi. -qo'qonni qanti<sup>7</sup>

Ba'zi joylarda oxirgi uch yo'l shunday o'zgaradi:

-Chilim chekaman,

-Chilim achchiq.

-Taqa chumchuq.

Yoki:

-Tog'da nima bor?

-Chodir tikaman.

---

<sup>6</sup> Jahongirov G'. Bolalar ertaklari. -T.: Cholpon, 1972.-B. 120.

<sup>7</sup> Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. -T.: Cholpon,1975.-B.68.

-Chodir kimniki?

-Otaboyniki.

-Otaboy qochdi,

-Sumalagi toshdi,

-Otaboy baxshi

-O'lgani yaxshi<sup>8</sup>.

She'rni keskin o'qib yoki biror satrini tashlab ketib bo'lmaydi - qo'shiqning dinamikasi buziladi.

Biroq ohangni buzmagani holda uning voqyeasini faqat o'ziga teng keladigan ekvivalent bilan almashtirish mumkin. Odatda ikkinchi yarmida shunday qilinadi. Yuqorida shunga variantlar keltirdik. Ikkinchi misolda ikki yo'l oshiqcha. U bilan she'r tempi buzilmadi. Bunga sabab voqyea yana bir qarama-qarshilik, satirik elementning qo'shilishi hisobiga boyidi. Bola Otaboyni qochishiga, «sumalagini toshishi» ga befarq qarayolmaydi, balki unga laqab qo'yib («Otaboy baxshi»), uning ustidan hukm chiqaradi («O'lgani yaxshi!»). qo'shiqdagi hamma detallar hayotdan olinadi – pista tog'da o'sadi, mag'zi yemish, shirinligi Shahandning qandidek, chodir boyniki, odamlar chilim chekadi, Chekuvchilar yaxshi odamlar emas («taka chumchuq») va hokazo.

Tadqiqotchi M.N. Melnikov bu xil qo'shiqlarni dialoglarga asoslangan qo'shiqlar turkumiga qo'shadi<sup>9</sup>. Haqiqatan ham bu turdagi qo'shiqlarda dialoglar ustunlik qiladi. Namangan bolalar folkloridagi bu turkum qo'shiqlar ham dialog asosiga qurilgan bo'lsa-da, Hozirda ikki kishi tomonidan emas, bir kishi tomonidan (Savol beruvchi ham, javob beruvchi ham yakka shaxs) kuylanadi. Bunga Namangan bolalar folklorida mavjud bo'lgan «Tomda kim bor?» qo'shig'i misol bo'la oladi:

-Tomda kim bor?

-Nilufarxon bor.

-Nima qilyapti?

-Olma uzyapti.

-Olmasidan bitta tashlasin.

-Achasi so'kadi.

-Achasi o'lmasin,

---

<sup>8</sup> Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. -T.: Cholpon,1975.-B.88.

<sup>9</sup> Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. -T.: Cholpon,1975.-B.100.

Xudoyim saqlasin

qo'shiq bolani erkalatib, o'ynatish jarayonida kattalar tomonidan kuylanadi. Bunda bolani o'ynatayotgan kishi chalqanchasiga osmonga qarab yotib, bolani qo'ltig'idan olgan holda baland ko'tarib shu qo'shiqni kuylaydi. Baland havoda muallaq turgan murg'ak tasavvurli bola o'zini tomda turgandek, tomdan turib olma terayotgandek his qiladi va zavqlanib qiqir-qiqir kuladi.

Ikkinchi qo'shiq xayotiy-maishiy mavzudagi termalar bo'lib, bunda ham yumor, komizm elementlari ko'zga tashlanadi.

Toshkent va farg'ona vodiysida «Chuchvara qaynaydur» qo'shig'i keng tarqalgan. Odatda u atigi to'rt yo'ldan iborat edi:

Chuchvara qaynaydiyo

Enam menga bermaydiyo,

Bermasa bermasino,

Oq uyimga kirmasino.

qo'shiqning qo'qon varianti:

Chuchvara qaynaydura

Onam menga bermaydura.

Bermasa bermasina

Boshimga urmasina<sup>10</sup>.

qo'shiqning Namangan varianti bir oz o'zgacha:

Chuchvara qaynaydiyo,

qozonda o'ynaydiyo.

qaynasa qaynasino,

O'ynasa o'ynasino.

qo'shiqni ikkinchi marta takror aytishda ikkinchi misra «Onam menga bermaydiyo» tarzida o'zgartirib aytiladi. Qo'shiqda «O'gaylik o'ksiklik» mavzusi ilgari suriladi. O'gay ona o'z farzandlari bilan o'gay farzandni ayricha ko'radi, uni kamsitadi, chiroyli ovqat pishirganda bermaydi. Beixtiyor bechora bola tilida shu qo'shiq yangray boshlaydi.

Voqyeaband qissa tariqasida aytiladigan qo'shiqlarni yana bir turi - «Tilla sandiq ochildi» qo'shiqlari. qo'shiq o'yin qo'shiqlari qatoriga qo'shiladi. Uning variantlari ko'p, hajmi ham turlicha-«Bolalar qo'shig'i»da e'lon qilingan varianti hatto 44 satrgacha

---

<sup>10</sup> Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. -T.: Cholpon,1975.-B.81.

boradi. Biz bu qo‘shiqning Namangan bolalari og‘zidan qisman farq qiladigan ikkita variantini yozib oldik. Mana uning biri:

Tilla sandiq ochildi,  
yerga bodom sochildi.  
Bodomlarni terguncha,  
qanotlarim qayrildi.  
qanot bering uchaylik,  
Oq saroyga<sup>11</sup> tushaylik.  
Oq saroyning oq toshi,  
Yangamning qalam qoshi.  
-Yangamsiz-u, yangamsiz,  
ishton bichishni bilmaysiz  
ishtoningizni qo‘ltiqlab,  
Boynikiga borasiz.  
Boynikida nima bor?  
-Uchar-uchar qushlar bor.  
Uchib ketdi havoga,  
qaytib tushdi daryoga.  
Daryo suvi quridi,  
Baliqlari chiridi.  
Hasan-Husan urishdi,  
Qora qonga belandi.  
-Qora qonni kim yuvdi?  
-Potma degan qiz yuvdi.  
Potma chiqdi toqqa,  
qulog‘ida xalqa.  
Halqasini yo‘qotib,  
O‘tirdi yig‘lamoqqa.  
Arra- marra,

---

<sup>11</sup> «Bolalar qo‘shig‘i» kitobida, Toshkent, 1937 yil, 11-betda ham «Oq saroy» yozilgan. G‘.Jahongirov Oq saroy joy nomi, u Shaxrisabzda deb yozadi, lekin Namangan bolalari qo‘shig‘idagi «Oq saroy» ni biz Shaxrisabzdagi Oq saroyga aloqasi bor deyolmaymiz. Bizningcha, Namangan variantidagi Oq saroy-xon saroyi.

Yana bo‘lasiz bir marra.

qo‘shiq 28 yo‘ldan iborat. Keyingi ikki yo‘l o‘yinning sharti. qo‘shiqdagi voqyelar soni oltita bo‘lib, bola bu qator, lekin ulama voqyealarni yod olib aytaveradi, bu bilan o‘yinning shartini aytish uchun bolalarning kayfiyatini sozlab oladi. Shuning uchun ham bundan ko‘ra ko‘proq, uzunroq syujet shu paytda ortiqchalik qiladi. qo‘shiqdagi turli afsonalar yig‘indisi ham bolalarni qiziqitirmaydi, bolalar ularni aytgandagi ohang qiziqtiradi, ya'ni so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzi emas, so‘zlarning aytilishi-ohangdorligi birinchi o‘rinda turadi.

Namangan bolalari tomonidan aytiladigan «Shaftolining shoxi sinaman dedi...» qo‘shig‘i ham voqyeaband bola qo‘shiqlariga yaxshi misol bo‘la oladi:

Shaftolining shoxi sinaman dedi,  
Akam armiyaga ketaman dedi.  
Orqasidan yig‘lab borsam yig‘lama dedi,  
Paxta ochilganda kelaman dedi.  
Paxta ochildi,  
yerga sochildi,  
Akam kelmadi.

Shaftolining shoxi sinsa, daraxt shoxidan ayriladi, akasi armiyaga ketsa, vaqtincha bo‘lsa-da ayriliq bo‘ladi. Bu ikki qatordagi voqyeani mazmun jihatdan bir-biriga o‘xshatish mumkin. «Paxta ochilganda kelaman dedi» misrasi bolaning vaqtni, faslni yoki mavsumni farqlay ola boshlaganidan dalolat beradi. Yigitlarni esa bahorda yoki o‘sha paxta ochilgan vaqt-kuzda xizmatga jo‘natiladi. Bola o‘sha vaqtni kuz deb qo‘ya qolmay, bunga aloqasi bo‘lgan paxtaning ochilishi bilan ifodalagan.

Bolalar qo‘shiqlarining bola pedagogikasi va psixologiyasini o‘rganish uchun ahamiyati katta. Ayni vaqtda ularning og‘zaki poeziyasi bolalar uchun ijod qilayotgan shoir-yozuvchilarga chuqur bilim, keng mavzu, kuy va ritmlar beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –T.: Sharq, 1998. -32 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2009. - 176 b.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
4. Alaviya M. O'zbek xalq qo'shiqlari.Toshkent,1959.
5. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent 1999.
6. Sarimsoqov B. Sovet davri o'zbek folklorini o'rganish masalalari //«O'zbek tili va adabiyoti» jurnali 1-son, 1987.
7. Sarimsoqov B. O'zyuek folklorining janrlar sostavi. O'zbek folklori ocherklari. Uch tomlik, 1-tom, Toshkent, 1988.
8. Safarov O.O'zbek bolalar poetik folklori. Toshkent, 1985.
9. Safarov O. Alla-yo alla. Toshkent,1999.
- 10.Safarov O. O'zbek sovet folklori ocherki. Toshkent, 1980.